

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MASALALAR YECHISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.

Yusupova Malohat Sarimsoqovna;
Jizzax shahar 7-maktab o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarini tashkil etishda masalalar yechishning yutuq va kamchiliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: masala, Pisa, Pirls, xalqaro baholash dasturlari.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.

Юсупова Малохат Саримсоковна;
Учитель 7-й школы города Джизак.

Аннотация: В данной статье представлена информация о достижениях и недостатках решения задач в организации уроков элементарной математики.

Ключевые слова: выпуск, Pisa, Pirls, международные оценочные программы.

THE METHOD OF FORMING THE COMPETENCE OF SOLVING PROBLEMS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS.

Yusupova Malohat Sarimsokovna;
Teacher at the 7th school of the of Jizzakh city.

Abstract: This article presents information about the achievements and shortcomings of problem solving in the organization of elementary mathematics lessons.

Key words: issue, Pisa, Pirls, international assessment programs.

KIRISH.

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'lim tizimida juda ko'p o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangiliklarning kiritilishi ta'lim sifatini xalqaro talablar darajasiga yetkazishdan iborat. Hozirda ta'lim to'g'risida qabul qilinayotgan ko'plab me'yoriy-huquqiyhujjatlarning zahirida ham boshlang'ich ta'limga yangicha yondashuvni olib kirish va sifatsamaradorlikni oshirish asosiy maqsadqilib belgilangan. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli farmonida qator maqsadlar berilgan bo‘lib, ta’limda qator zamonaviy yangiliklarni olib kirishga qaratilgan vazifalar belgilangan: maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratilishi;
- davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta’lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish;
- 2026-yilga qadar 10ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;
- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirilishi uchun Davlat budjetidan 605 mlrd so‘m ajratilishi; 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish; maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqarodarajaga olib chiqish.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risidagi 2019-yil 29-apreldagi 5712-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4884-sonli qarori shular jumlasidandir.

Bugungi kunda maktablarda boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Nuning uchun matematika bo‘yicha bilimlar berish bilan birga ularga

o'rganilayotgan bilimlarni asosli va mustahkam bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli o'quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to'plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo'llashga o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, matematika darslarida o'qituvchi o'quvchilarni faollikka undashi uchun darsda o'quvchilarning ziyrakligini chaqqonligini oshirishga xizmat qiladigan tezkor savollar, topshiriqlar, jumboqlar, mantiqiy masalalar va misollar, rebuslar, krossvordlar foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ayniqsa, qiziquvchan, tirishqoq bo'ladilar. Tezkor savollar, topshiriqlar, jumboqlar, mantiqiy masalalar va misollar, rebuslar, krossvordlarni yechish ular uchun qiziqarli va doimiy mashg'ulotga aylanishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Bugungi kunda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Nuning uchun matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va mustahkam bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli o'quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to'plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo'llashga o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, matematika darslarida o'qituvchi o'quvchilarni faollikka undashi uchun darsda o'quvchilarning ziyrakligini chaqqonligini oshirishga xizmat qiladigan tezkor savollar, topshiriqlar, jumboqlar, mantiqiy masalalar va misollar, rebuslar, krossvordlar foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ayniqsa, qiziquvchan, tirishqoq bo'ladilar. Tezkor savollar, topshiriqlar, jumboqlar, mantiqiy masalalar va misollar, rebuslar, krossvordlarni yechish ular uchun qiziqarli va doimiy mashg'ulotga aylanishi kerak.

Ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar olib brogan I.V. Alexina, V.A. Guseva, G. L. Lukankina, I.Petrovskiyar boshlangi'ich sinf o'quvchilari bilimlari, tushunchalari shakllanishida maslalar yechish ko'nikmasi o'rni juda muhim ekanligini ta'kidlab o'tishgan.

Tahlil va natijalar.

Masalalar yechish jarayonining o'zi ma'lum metodika o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u aqliy operatsiyalarni analiz va sintez, konkretlashtirish va abstraklashtirish, taqqoslashi, umumlashtirilishi talab etiladi. Masalan, o'quvchi istalgan masalani yechayotganida analiz qiladi, savolni masala shartida ajratadi, yechish planini tuzayotganida sintez qiladi, bunda konkretlashtirishdan (masala shartini hayolan chizadi) so'ngra abstraklashdan foydalanadi (konkret situatsiyadan kelib chiqib arifmetik amalni tanlaydi) biror bir turdagi masalalarni ko'p marta yechish natijasida o'quvchi bu turdagi masalalarda berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishlar haqidagi bilimni umumlashtiradi, buning natijasida bu turdagi masalalarni yechish usuli umumlashtiriladi.

Bolalarni masala yechishga o'rgatish – bu berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishni aniqlashni va buning asosida arifmetik amallarni bajarishni o'rganish demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlashtirish to'g'risida” gi 5712-son farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholashda jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Masalalar yechishga o'rgatishda quyidagi bosqichlarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

- 1-bosqich-masala mazmuni bilan tanishtirish;
- 2-bosqich-masala yechimini izlash;
- 3-bosqich-masalani yechish;
- 4-bosqich-masala yechimini tekshirish.

Ajratilgan bosqichlarga bir-biri bilan uzviy bog'langan va bu bosqichning har bir bosqichida ish asosan o'qituvchining rahbarligida olib boriladi.

Xalqaro baholash dasturlari doirasida o'tkazilayotgan test topshiriqlarida shuni ko'rish mumkinki berilayotgan topshiriqlarning askari matnli masalalar ko'rinishida berilmoqda. Ushbu maslalani yechish jarayonida o'quvchilarni muammoni hal etish va tanqidiy fikrlash kompetensiyalari ham shakllanadi.

TIMSS xalqaro baholash doirasida berilgan ayrim maslalardan na'munalarni ko'rib o'tamiz.

1. 600 ta kitobni har bir qutiga 15 tadan joylashtirish kerak. Nechta quti kerak bo'lishini aniqlash uchun quyida keltirilgan qaysi amaldan foydalanish mumkin?
2. Poyezd Toshkentdan ertalab soat 8:45 da jo'nadi. U Samarqandga 2 soat 18 minutda yetib keldi. Poyezd Samarqandga soat nechada yetib keldi?
3. Maktab o'yin maydonchasi kvadrat shaklida. Maydoncha tomonining uzunligi 100 metr. Ra'no maydonchani atrofni to'liq aylanib chiqdi. U qancha masofani bosib o'tgan?
4. Xaritaning masshtabi quruqlikdagi 4 kilometr masofa xaritada 1 santimetrni ifodalashini bildiradi. Xaritada ikki shahar orasidagi masofa 8 santimetrga teng. Bu ikki shahar orasidagi haqiqiy masofa necha kilometr?

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilar olgan bilim mustahkamligi ularning kelasi yuqori sinflarda matematika fanini o'rganishlarining poydevori xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1. Ro'zmetova R. D. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga masalalar yechishni o'rgatish orqali aqliy faoliyatini rivojlantirish. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) November 2022 / Volume 3 Issue 11
- 2. Damirov M.I. Boshlang'ich ta'limda sifat va samaradorlikni oshirishning asosiy omillari. Boshlang'ich ta'limda xalqarotajribalar: yangi avloddarsliklari, milliy dastur va raqamli texnologiyalar integratsiyasi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari2023-yil,19-may BUXORO–2023.
- 3. Usarov S.A.. O'quvchilarning mantiqiy kompetentligini va mantiqiy savodxonlikni shakllantirishning dolzarbligi.. "Taffakur ziyosi" ilmiy uslubiy jurnal 1/2022 147-149 betlar.
- 4. Usarov S. " Bo'lajak matematika fani o'qituvchilarida mantiqiy savodxonlikni shakllantirish omillari". 5th - International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education 2022.
- 5. Usarov S.A.. Elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiq elementlarini o'rganishga qiziqishlarini rivojlantirish // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali, 2022 / 2 - son, ISSN 2181-9580 264-270 betlar.

